

“Mikrokreditbank” ATBning korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni ko‘rib chiqish natijalari haqidagi 2023 yilning 1-2-3 choragi uchun HISOBOT

“Mikrokreditbank” ATB Korrupsiyaga qarshi nazorat departamentiga joriy yilning 1–2–3-choragi davomida jami jismoniy va yuridik shahslardan 51 murojaat kelib tushgan. Mazkur murojaatlar hududlar kesimida, yani: Samarqand viloyatida 8 ta Qashqadaryo viloyatida 12 ta Xorazm viloyatida 2 ta Andijon viloyatida 1 ta, Farg‘ona viloyatida 6 ta, Surxondaryo viloyatida 5 ta, Sirdaryo viloyatida 1 ta, Navoiy viloyatida 2 ta, Qoraqalpog‘iston Respublikasida 3 ta, Andijon viloyatida 1 ta, Toshkent viloyatida 1 ta, Namangan viloyatida 4 ta, Jizzax viloyatida 3 ta va Toshkent shahrida 2 ta.

Aloqa kanallariga 1-2-3-chorak holatiga bo‘yicha kelib tushgan xabarlar va murojaatlar soni 14 ta: Surxondaryo viloyatida 2 ta, Samarqand viloyatida 1 ta, Qoraqalpog‘iston respublikasida 2 ta, Jizzax viloyatida 3 ta, Qashqadaryo viloyatida 2 ta, Namangan viloyatida 1 ta, Andijon viloyatida 2 ta va Xorazm viloyatida 1 holatda xabar qoldirilgan va tegishli departamentlar bilan birgalikda ijobiy xal qilingan.

Yuqoridagi holatlar bo‘yicha o‘rganishlar o‘tkazilganda 4 ta holat yuzasidan Huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qilingan, qolgan 47 holatda fuqarolarga tegishliligi bo‘yicha o‘rganish natijalari ma‘lum qilingan va o‘rganish natijasidan norozi bo‘lgan taqdirda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qilish huquqiga ega ekanligi ma‘lum qilingan.

Korrupsion holatlarni kamaytirish uchun Respublika bo‘ylab bir qator seminar tadbirlar tashkil etildi jumladan, birinchi, ikkinchi va uchinchi chorak oralig‘ida Bankning bosh ofisi xodimlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahar, Sirdaryo, Toshkent, Qashqadaryo, Buxoro, Xorazm, Navoiy, Andijon, Namangan Farg‘ona va Samarqand viloyatlari xodimlariga huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan birgalikda 2050 nafarga yaqin xodim o‘qitildi va tegishli bilim-ko‘nikmalarga ega bo‘lishdi. Mazkur o‘quv seminarlarni xodimlarga jonli yetkazish maqsadida Departament xodimlari tomonidan mahbuslar ishtirokida video rolik ishlab chiqildi va namoyish etildi.


Shuningdek korrupsion holatlarga duch kelmaslik va uni barvaqt oldini olish maqsadida doimiy ravishda filiallarda ichki nazorat tadbirlari o‘tkazish maqsadida, bankning viloyat mintaqaviy filiallarida ICHKI-TRENERLAR tasdiqlanib onlayn shaklda reja-grafikga asosan o‘quv mashg‘ulotlari o‘tkazib kelinadi.

Bundan tashqari bankda xodimlarni individual o‘qitish va rivojlantirish uchun onlayn platforma **“TRAINING MKB”** tashkil etilgan bo‘lib, unda

“ANTIKORRUPSIYA 2023, BANKDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH” mavzularida xodimlar viktorina, video darslar va testlar orqali o‘z bilimlarini oshirib borishdi.

Joriy yilning 3 choragida Bank boshqaruvining topshirig‘iga binoan bankning barcha tegishli departamentlari ishtirokida 44 nafar xodimlar “Xalqaro menejment tizimi” ISO 37001:2016 qoidalari bo‘yicha malaka oshirib tegishli sertifikatlarga ega bo‘lishdi. Mazkur malaka oshirish kursini yil yakuniga qadar 150 nafarga yaqin xodimlarni o‘qitish rejalashtirilgan.

**Korrupsiyaga qarshi nazorat
departamenti direktori**



A.Toshpulatov